

SHAXSDA YANGI MA'LUMOTLARGA NISBATAN TA'SIRCHANLIKNING NAMOYON BO'LISHI

Shukurova U.U.

GulDU dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19651835>

Bizga ma'lumki shaxsda yangi ma'lumotlarga nisbatan ta'sirchanlikning namoyon bo'lishi bu insonning yangi axborotni qabul qilish, unga emotsional va intellektual jihatdan javob berish hamda uni o'z xulq-atvoriga singdirish darajasini anglatadi. Bu holat psixologiyada muhim tushuncha bo'lib, u shaxs rivoji, o'rganish jarayoni va qaror qabul qilish bilan bevosita bog'liq.

Kuzatishlardan ma'lumki shaxs yangi ma'lumotlarga qanchalik ochiq bo'lsa, ularni tezroq va samaraliroq qabul qiladi.

Bunday shaxslar odatda yangilikka intiluvchan bo'ladi. Yangi axborot insonda hayrat, qiziqish, qo'rquv yoki shubha kabi hissiyotlarni uyg'otadi. Bu hissiyotlar shaxslarning ma'lumotlarni qanchalik chuqur o'zlashtirilishiga ta'sir qiladi. Ta'sirchanlik faqatgina qabul qilish emas, balki ma'lumotni tahlil qilish, solishtirish va baholashni ham o'z ichiga oladi.

Yuqori darajadagi shaxslar har qanday yangi ma'lumotni tekshirib ko'radi. Oldingi bilim va tajriba yangi ma'lumotni qanday qabul qilishga katta ta'sir ko'rsatadi. Tajribali shaxslar yangilikni tezroq anglaydi yoki unga ehtiyotkorlik bilan yondashadi.

Atrofdagi odamlar, madaniyat va ijtimoiy qarashlar ham shaxsning yangi ma'lumotlarga bo'lgan ta'sirchanligini shakllantiradi. Shaxsda yangi ma'lumotlarga nisbatan ta'sirchanlik yangi g'oyalarni tez qabul qilish yoki rad etish, fikrini o'zgartirishga tayyorlik, yangilikka nisbatan ehtiyotkorlik yoki ishonch, o'rganishga bo'lgan motivatsiyaning ortishi kabilarda ko'rinadi.

Shaxsning yangi ma'lumotlarga nisbatan ta'sirchanligi uning intellektual rivoji, hayotiy tajribasi va psixologik xususiyatlariga bog'liq. Muvozanatli ta'sirchanlik - ya'ni ochiqlik va tanqidiy fikrlash uyg'unligi - eng samarali hisoblanadi.

Respublikamizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda innovatsion faoliyatga oid ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilib, texnika va texnologiyalarga kiritilgan yangicha yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish orqali ta'lim va ishlab chiqarish uzviylikini o'rnatish jarayonida yangiliklarni izlab topish va kiritish, innovatsion faoliyatga psixologik tayyor turish yondashuvini shakllantirish yo'nalishlarda keng ko'lamli ilmiy tadqiqot ishlari dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Ushbu tadqiqot ishida shaxsning yangi ma'lumotlarga nisbatan ta'sirchanligini namoyon bo'lishiga ko'ra, talabalarda axborotlarga tolerantlik, o'ziga ishonch, ijodkorlik, mas'uliyatlilik, hamkorlikda faoliyat yuritish, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining darajaviy tarzda ifodalanishi innovatsion faoliyatga yo'nalganlikning muhim jihatlari ekanligini dalillash orqali talabalarning innovatsion tafakkurni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirishga erishildi.

Talabalarning innovatsion faoliyatga yo'nalganligini psixologik tayyorlik mezonlariga ko'ra, shaxs xususiyatlari (mustaqillik, o'z-o'zini qabul qilish, kreativlik)ning motivatsion, reflektiv-baholovchi komponentini rivojlanish dinamikasi asosida «tashabbuskorlik», «o'zgarishlarga tayyorlik»ni darajaviy differensial xususiyatlarini aniqlash zarurati isbotlandi.

K.Rodjersning fikricha, agarda insonga tug'ma salohiyatlarni to'liq ifodalash uchun sharoit yaratib bersak, u optimal va samarali tarzda rivojlanadi. Bu tarzda konstruktiv tug'ma salohiyatning rivojlanishi insonga o'z kompetensiyalarini va professionalizmini, shu bilan birga ijtimoiy etukligini, mas'uliyatligini va ijodga intilishini ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida olingan esse natijalarining kontent-tahlili asosida innovatsion g'oyalarning sohibi ochiqlik, o'zini namoyon qilish va refleksivlik kabi shaxs xususiyatlariga ega ekanligi aniqlandi. Jumladan, ochiqlik ilgari surayotgan g'oyalarni muhokama qilish, boshqalarning ham qarashlarini inobatga olish uchun muhim sanaladi. Shu bilan birga, o'z tanlovi uchun javobgarlik, ijodkorlikning rivojlanish istiqbollari to'g'risidagi refleksiyaning etarli emasligi aniqlandi.

O'tkazilgan metodikalar bo'yicha olingan natijalardan innovatsiyalar haqidagi tushunchalarni bilish ko'rsatkichlari bo'yicha talabalarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Past ko'rsatkichga ega bo'lgan talabalar guruhi.
2. O'rtacha ko'rsatkichga ega bo'lgan talabalar guruhi.
3. Yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan talabalar guruhi.

Talabalarni yangiliklarni yaratish, mavjud ishlanmalarni takomillashtirish - innovatsion faoliyatga yo'nalganligini ta'minlashda motivatsiya muhim sanalib, mavjud bilim va ko'nikmalar vositasida sifatida amal qiladi.

Shu sababli, talabalarni innovatsion faoliyatga individual-shaxsiy tayyorgarligi ta'lim amaliyotida diqqat markazida turish lozim.

Talabaning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi past daraja (talaba uzoq davom etiladigan yo'nalganliklar evaziga, ya'ni o'quv va treninglar natijasida innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishga ehtiyoj paydo qiladi. Bu jarayonda innovatsion faollik muhim ahamiyat kasb etib, ijodiy faoliyat dinamikasida ifodalanib, intellektual tashabbuskorlik darajasida namoyon bo'ladi.

Innovatsion faollik sub'ektning faoliyat normalaridan (oldin qabul qilingan, amal qilib kelayotgan me'yorlardan) tashqariga chiqishini nazarda tutadi. Shuning uchun biz, birinchi o'ringa shaxsiy sifatlar blokini, ikkinchi o'ringa – innovatsion faoliyatga bir qator yo'nalganlikdan so'ng namoyon bo'ladigan professional sifatlarni qo'ydik.

Zamonaviy ochiq axborot-ta'lim muhitida, intensiv rivojlanish darajasi faollashgan bir davrda innovatsion faoliyat yuritish uchun qadam qo'yish jamiyatning rivojlanishini ta'minlovchi intellektual omil sanaladi. Shu sababli, innovatsion faoliyatni qadriyat sifatida anglash lozim bo'ladi. Bu ma'noda nafaqat talabalarni, balki yoshlarni innovatsion faoliyatga kirishishga yo'naltirish psixologik ma'rifatning vazifasi sanaladi.

Tadqiqot natijasi asosida shuni aytish mumkinki, talabalarni innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishga yo'naltirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ularni yangiliklarga intilish, mavjud uskunalarni takomillashtirish uchun harakatlar majmuasi faollashganligini ko'rsatadi.

Buning natijasida talabalarining innovatsion salohiyatini rivojlantirib ruyobga chiqarish ularni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Chunki, bugungi ta'lim dasturlari talabalarni innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishga qaratilmagan bo'lib, asosan mavjud bo'lgan texnologiyalarni qo'llash va ularga texnik yordam ko'rsatish uchun bilim berishga qaratilgan.

Bu o'z navbatida:

birinchidan, talaba shaxsini, yangilikni yaratishga, ijodga intilishga yo'naltirish uchun zamin tayyorlashni;

ikkinchidan, iste'molchi va bunyodkor shaxslar orasidagi tafovutning ma'noviy jihatdan ajrata bilishga o'rgatishni talab etadi. Shu sababli, mutaxassislik fanlarini o'tash amaliyotida ishlab chiqarish va kasbiy ta'lim orasidagi ijtimoiy masofani yaqinlashtirish maqsadida, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muxamedova D. Teoretiko-metodologicheskie osnovy sotsialno-psixologicheskix aspektov innovatsionnogo menedjmenta v obrazovanii. Monografiya. - Tashkent, 2013. - 160 s.
2. Nartova-Bochaver S.K. «Copingbehavior» v sisteme ponyatij psixologii lichnosti // Psixologicheskij jurnal. 1997. T. 18. № 5. - S.20 - 30.
3. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. –Toshkent: Fan, 2003.–215 b.
4. Родымова L.S. Psixologo-pedagogicheskaya innovatika: lichnostnyy aspekt. – M.:Moskovskiy pedagogicheskij gosudarstvennyy universitet, 2012. – 207 s.
5. Fedorov V.A., Kolegova E.D. Innovatsionnyye texnologii v upravlenii kachestvom obrazovaniya. – Ekaterinburg: Izdatelstvo RGPPU, 2002. – S.78.